

10. Хошимов Ғ. М. Гап ва унинг бўлаклари ҳамда кенгайтирувчиларига қиёсий-типологик ёндашув//Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2019. – Б. 75.

XORIJIY TIL TA'LIMIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA: TUSHUNCHA VA MOHIYAT

Gulnoz TOLIBOVA

*O'zbekiston jahon tillari universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

***Annotasiya.** Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiyayning mohiyati va tarkibi muhokama qilinadi. Kommunikativ kompetensiya lingvistik, strategik, nutqiy, ijtimoiy-madaniy, kabi bir qator komponentlarni o'z ichiga oladi. Jahon ta'lim tizimida xorijiy tilda muloqotni o'rganishda kommunikativlik yo'nalish asosiy o'rin tutadi. Kommunikativ ong shaxsning kommunikativ faoliyati va kommunikativ xulq-atvorining butun yig'indisini ta'minlovchi kommunikativ bilimlar va kommunikativ mexanizmlar majmuidir. Ushbu tushunchalarning har bir inson faoliyati jarayonini va jamiyatda qabul qilingan muloqot me'yorlari va qoidalariga, shu bilan bir qatorda til o'qitish markazlarida xorijiy tillarni intensiv o'qitishda rioya qilishni nazarda tutadi.*

***Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, kompetentlik, kompetensiya, komponent, nutqiy ko'nikma, kommunikativ shaxs, kommunikativ qobiliyatlar, pedagogik takt.*

Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha hozirgi kunda xorijiy til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyani shakllantirish muammosi, etarlicha o'rganilmaganligi sababli ko'plab tadqiqotchilar umumiy muloqot muammolarini, shuningdek, kommunikativ ko'nikmalar, qobiliyat va xatti-harakatlarning individual muammolari o'rganmoqdalar.

Kommunikativ kompetensiya fenomeni uni “muloqot” tushunchasi orqali ko'rib chiqadigan ko'plab olimlarning tadqiqot ob'ektiga aylangan: insonlar jamoasi vujudga keladigan jarayon sifatida (M.M. Baxtin, M.S. Kagan); dialog sifatida, inson mavjudligining asosiy, “suveren” tamoyili” (L.P. Bueva, M. Buber, T.G. Grushevitskaya, S. Frank, M. Xaydegger; madaniyat shakllanishining muhim omili sifatida (V. Bibler,

M.S. Kagan), V.V. Rozanov, madaniyatlar dialogi sifatida (V. Bibler, B.A. Uspenskiy, K. Yaspers), madaniyatning muhim qismi sifatida, inson mavjudligi (Y.V. Bromley, V. Gumbolt, M. Mid), til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar muammosi sifatida (V. Gumboldt, K. Levi-Strouss, AL Potebnya va boshqalar).

Muloqot ko'nikmalarining har xil turlari va o'ziga xos muloqot qobiliyatlari E.A. Klimov, N.V. Kuzmina, A.A. Leontiev va boshqalar; L.Ya. Gozman, I.S. Kon va boshqalar insonning hissiy munosabatlari psixologiyasini (empatiya, identifikasiya) o'rgandilar. Muloqotdagi qobiliyat, bilim, ko'nikmalar, B.G. Ananeva, G.M. Andreeva, Yu.N. Emelyanova, A.A. Leontiev kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi, V.N. Vvedenskiy, N.S. Rozov, M.A. Xolodnaya shuningdek, kommunikativ kompetensiyani bilim, ko'nikma, tajribaga asoslangan, o'z navbatida, o'quv davrida egallanadigan umumiy qobiliyat deb biladi. A.V Labunskaya, A.V. Mudrik, E.V. Rudenskiyning fikriga ko'ra, kommunikativ kompetensiya, birinchi navbatda, insonning ichki resurslari tizimi sifatida belgilanadi.

Kompetensiya lotincha “compete” so'zidan olingan bo'lib, erishaman, muvofiqman, mos kelaman ma'nolarini anglatadi. Shu bilan bir qatorda kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasi ham kompetensiya sanaladi. Kompetensiya so'zi muayyan vazifani bajarish uchun biror shaxs yoki tashkilotga berilgan vakolat va huquq ma'nosida ham qo'llaniladi.

Kompetensiya shaxsning murakkab, ta'limiy tuzilishi bo'lib, u o'zida shaxsning intellektual, irodaviy, kreativ, emosional sifatlarini o'zida jamlaganki, ular faoliyatdan ko'zlangan maqsadga uning o'zgarib boruvchi sharoitida amalga oshuvini ta'minlaydi. Shunday qilib, kompetensiya shaxsning yuksak sifatli xislati bo'lib, uning shakllanishi ta'limning hal qiluvchi oqibat, natijasi hisoblanadi.

E.P. Ilyin o'zining “Psixologiya dlya pedagogov” asarida kommunikativlik – bu tug'ma yoki orttirilgan qobiliyat, mahorat, o'z fikrini, his-tuyg'ularini suhbatdosh yoki insonlar tomonidan to'g'ri tushunishi, idrok etish va to'g'ri etkazish qobiliyatidir [21].

Kommunikativlik har qanday pedagogik faoliyatni ishtiyoq bilan bajarishga zarur bo'lgan sifat o'rnida mutaxassisning har tomonlama ahamiyatli fazilatlari katta

guruhining muhim tarkibiy qismidir. Bular xushmuomalalik, emosional ta'sirlilik, murakkab nutq (to'g'ri talaffuz, mantiq, fikrlarni ifodalashning uyg'unligi va boshqalar), pedagogik takt, o'quvchining yuz ifodasi, mimikasi, imo-ishoralari, holati, yurishi orqali ruhiy holatini "anglash" qobiliyatidir. Zero, xorijiy tillarni o'rgatishning asosiy maqsadi madaniyatlararo muloqotga qodir va tayyor shaxsni tarbiyalashdir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rganishni yanada takomillashtirish va kelajak avlodni xorijiy tilga bo'lgan qiziqishini ortirish davr talabi darajasiga ko'tarildi. Yurtimizda xorijiy tillarni chuqur o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, turli soha vakillarini va yoshlarni xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.12.2012 yildagi PQ-1875-sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori va uning davomi sifatida 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5117-sonli qarorida o'z aksini topgan.

Til o'rganuvchilarning xorijiy til o'qitish markazlarida kommunikativ-nutqiy madaniyatini shakllantirish nutqiy xatti-harakatining eng samarali strategiyasini tanlash qobiliyatini takomillashtirish, nutqiy faoliyatining barcha turlarini – gapirish, tinglash, yozish, o'qishni, shuningdek, ularga asos bo'lgan barcha ko'nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Og'zaki muloqot bilan bog'liq ruhiy funksiyalar va qobiliyatlarni (xotira, diqqat-e'tibor, tasavvur, fikrlash, shuningdek, xushmuomalalik va empatiya) rivojlantirishning ajralmas shartidir. Til o'rganuvchilarning kommunikativ-nutqiy madaniyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning tarbiya darajasiga, axloqiy talablarni bajarishiga, ularning mantiqiy va ijtimoiy-psixologik madaniyatiga bog'liq.

Kommunikativ-nutqiy muloqot muammosi doirasida turli kommunikativ toifalar ko'riladi:

- kommunikativ shaxs
- kommunikativ ong
- kommunikativ faoliyat;

- kommunikativ xatti-harakatlar;
- kommunikativ qobiliyatlar;
- kommunikativ nizolar.

Ushbu tushunchalarning har biri inson faoliyati jarayonini va jamiyatda qabul qilingan muloqot qilish me'yorlari va qoidalariga rioya qilishni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetentlik (KK)ni shakllantirish:

-lisoniy (til me'yorlarini o'rgatish va ularni tegishli vaziyatda qo'llash qobiliyati), lingvistik (til haqida bilish, lingvistika metatili bilish) va madaniyatshunoslikka oid (xalq tili va madaniyatini bilish) kompetensiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Professional shaxsning kommunikativ kompetentligini shakllantirish muammosi turli nuqtai nazardan ko'plab ijtimoiy, psixologik, lingvistik tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

“Communicative competence” iborasi birinchi bo'lib ingliz tilida paydo bo'lgan. Kommunikativ kompetensiya jonli, tabiiy muloqot jarayonida asosiy lisoniy ko'nikmalarni (og'zaki va yozma nutq, grammatika, o'qish va tinglab tushunish yoki tinglash) bir vaqtda rivojlantirishga, talabani xorijiy tilda muloqot qilishni o'rgatishga qaratilgan. “Kommunikativ kompetensiya” atamasi metodikada tilni bilish darajasining ko'rsatkichi sifatida keng qo'llaniladi. Ushbu atama ilmiy tarzda ishlatilishga amerikalik tilshunos N. Xomskiy tomonidan kiritilgan. Hozirgi vaqtda “kommunikativ kompetensiya” atamasining yagona ta'rifi mavjud emas va mualliflar uni turli ravishda izohlaydilar.

N. Xomskiyning fikriga ko'ra, modellarga asoslanib cheksiz miqdordagi jummalarni tuzishi (tushunishi), shuningdek, fikr-mulohazani muhokama qilishi, ya'ni ikki tildagi formal o'xshashlik va farqlarni ko'rishi kerak deb ta'riflaydi. Xorijiy tillarni o'qitish doirasida ushbu tushuncha xorijiy tilni bilish darajasini aniqlash bo'yicha Evropa Kengashi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar doirasida batafsil ishlab chiqilgan (Strasburg, 1996) va o'quv jarayonida olingan bilim, ko'nikmalar, mahoratlar va ish tajribasi vaqtida biron bir faoliyatni bajarish qobiliyati sifatida belgilanadi[17].

1980-yillarda M. Kaneyl (M.Canale) va M. Sveyn (M. Swain) kommunikativ kompetensiya nazariyasini ishlab chiqish ustida ishlashni davom ettirdilar va u keng e'tirof etildi va tarqaldi. Kommunikativ kompetensiyani muloqot uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning asosiy tizimi deb hisoblaydigan M. Kaneyl va M.Sveyn konsepsiyasi (leksikani bilish va ijtimoiy-madaniy qoidalar va qoidalardan foydalanish mahorati) [8, 66-b].

Kommunikativ kompetensiya, M. Kaneyl (M.Canale) va M.Sveyn fikricha, "haqiqiy muloqot"dagi bilim va malakani ham anglatadi. M. Kaneyl va M.Sveyn kompetensiyaning 4 ta asosiy turini ajratib ko'rsatdilar, ular bilim va ko'nikmalar tizimi bilan M. Kaneyl va M.Sveyn o'zaro ta'sirda muloqotni tashkil qiladi:

- Grammatik kompetensiya: lug'at, fonetika, semantika, imlo va sintaksis (lug'at, talaffuz, imlo, semantika va gap tuzish);
- Ijtimoiy lingvistik kompetensiya: bayonotlarning ma'lum bir vaziyatda shakl va ma'noga muvofiqligi, kontekstual fon;
- Diskurs kompetensiyasi: og'zaki va yozma nutqda izchil, mantiqiy bayonotlar qurish qobiliyati;
- Strategik kompetensiya: chet tilli muhitda til, nutq va ijtimoiy muloqot tajribasini bilmaslik sababli maxsus vositalar yordamida nutqni ifodalash.

I. A. Zimnyaya kompetensiyani "ichki, potensial, yashirin psixologik yangidan hosil bo'lgan bilimlar, tasavvurlar, harakatlar dasturlari, qadriyatlar va munosabatlar tizimlari bo'lib, ular keyinchalik inson kompetentliklarida namoyon bo'ladi" deb ta'riflaydi [5].

A.V. Xutorskiy kompetensiyani shaxsning predmetlar va jarayonlarning ma'lum doirasiga nisbatan o'rnatilgan o'zaro bog'liq fazilatlari yig'indisi deb tushunadi [16, S.58-64].

A. Panfilovaga ko'ra, kommunikativ kompetentlik – bu bilim, qobiliyat va ko'nikmalar yig'idisidir, jumladan: muloqot vazifalari va kommunikativ jarayonning xususiyatlari; muloqot turlari va uning asosiy belgilari, aloqa vositalari; og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot; o'xshash tizimlar va ularga kirish kalitlari; tinglash turlari

va undan foydalanish texnikalari; “qayta aloqa” – savol va javoblar, ishga oid o‘zaro aloqa shakllari va metodlari, odamlarga ta’sir qilish texnologiyalari va usullari [13].

V.G. Kochetkova kommunikativ kompetentlikni bilim, hissiy tajriba va muloqot qilish vositalaridan erkin foydalanishga asoslangan shaxslararo muloqot sohasida harakat qilish uchun ma’lum ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan murakkab, ko‘p qirrali hosila deb hisoblaydi [9].

A.T. Ibraevaning fikricha, izlanayotgan tushunchaning texnologik talqini shundan iboratki, “kommunikativ kompetensiya” – bu suhbatdoshlarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ssenariyni prognozlash va nutqiy harakatlar rejasini tuzish qobiliyati bo‘lib, ularning xulq-atvorida nutq ravonligi, uslub va nutq yaratish orqali amalga oshiriladi.

“Kommunikativ kompetensiya” hozirgi vaqtda zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda, bu esa shaxsining umumiy gumanitar madaniyatini oshirish, unda uni turli xil faoliyat turlariga jalb qilish uchun zarur bo‘lgan yuksak ijodiy, g‘oyaviy va xulq-atvor fazilatlarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi [20, S. 45-47].

Kommunikativ kompetensiya murakkab shaxsga oid hosila bo‘lib, quyidagi komponentlar va elementlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi: motivasion, kognitiv va prosessual, ular esa quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi: til o‘rganuvchilarning kommunikativ faoliyatga munosabati va yo‘nalganligi, kommunikativ faoliyatni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi, imkoniyatlari, usullari haqidagi bilimlar-xabardorligi, muvaffaqiyatli aloqa qilish uchun imkon beradigan tinglovchilar tomonidan kommunikativ ko‘nikmalarni egallash.

Bunda motivasion komponent – kommunikativ faoliyatni ongli ravishda muvaffaqiyatli amalga oshirishga tayyorlik; kommunikativ faoliyatni amalga oshirish ehtiyoji; boshqa odamlar bilan o‘zaro muloqot qilish ehtiyoji; muloqot ishtirokchilariga qiziqish; muloqot ma’lumotlarining mazmuniga qiziqish.

N.I. Gez kommunikativ kompetensiyaning komponentini uchga ajratadi:

- lingvistik komponent – o'rganilayotgan til tizimi va ular asosida shakllangan leksiko-grammatik va fonetik muloqot vositalarini ishlatish ko'nikmalari haqidagi bilimlar;

- pragmatik komponent – ma'lum bir kommunikativ vaziyat, nutqiy vazifa va kommunikativ niyatga muvofiq chet tilidagi fikr-mulohazalarni tushunish va yaratishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va mahoratlar;

- sosiolingvistik komponent – o'zga ijtimoiy tilning(lingvososium) milliy-madaniy xususiyatlariga muvofiq o'rganilayotgan til sohiblari bilan og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqotni amalga oshirish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va mahoratlar[3].

V.V. Safonova kommunikativ kompetensiyaning quyidagi komponentlarga ajratadi: lisoniy (grammatik, lingvistik); nutqiy (pragmatik, strategik, diskursiv); ijtimoiy-madaniy (sosiolingvistik, lingvomadaniy) kompetensiyalar[15].

M. Kanale va M. Sueyn kommunikativ kompetensiyaning quyidagi to'rtta komponentini ajratadilar: grammatik kompetensiya, sosiolingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, strategik kompetensiya [19, P.1-47].

Ko'pgina olimlarning tadqiqotlari kommunikativ kompetentlikni shakllantirish muammosining ayrim jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. O'rganilayotgan muammoni tushunishga yondashuvlardagi farq ushbu hodisaning psixologik-pedagogik asoslarini aniqlashtirish va tizimga keltirishni talab qilib, uni hal qilish quyidagi xususiyatlarni aniqlash orqali osonlashtirilishi mumkin:

- muloqot qilish kommunikativ ko'nikmalar va mahoratlarni o'rgatish shakli sifatida (I. A. Zimnyaya, S. L. Rubinshteyn, A. M. Shaxnarovich);

- nutqiy faoliyat kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish sharti sifatida (L.S. Vigotskiy, A.A. Leontev, E.I. Passov);

- pedagogik o'zaro aloqa (Yu.K. Babanskiy, V.P. Davidov, I.A. Zimnyaya).

Yu. N. Karaulovning fikriga ko'ra, kommunikativ kompetensiyaning tuzilishi lisoniy shaxsning tuzilishi bilan bog'liq, ammo u bilan bir xil emas. Lisoniy shaxs tuzilishida uch daraja (verbal-semantik, kognitiv-tezaurus va motivasion-pragmatik) ajratiladi. Kommunikativ kompetensiya shaxsning psixofiziologik xususiyatlarini, uning

maqomining ijtimoiy xususiyatlarini, madaniyat fondini, til kompetensiyasini va shaxsning pragmatikasini o'z ichiga olgan besh darajadan iborat tuzilma sifatida ko'riladi [6].

E.V. Rudenskiy kommunikativ kompetensiyaning boshqa bir ijtimoiy-psixologik xarakteristikasi mavjud bo'lib, u muloqot sifatida ko'riladi va quyidagi tarkibiy qismlarga ega: kommunikativ vaziyatni prognozlash va dasturlash; bilim va erudisiya; muloqot qilish vositalari (og'zaki va og'zaki bo'lmagan); kommunikativ holatni boshqarish; kommunikativ madaniyat (umumiy va milliy); ijtimoiy suhbatdoshga qarab mo'djalga olish; nutqiy kompetensiya[14].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bezrukova V. S. Pedagogika. Proektivnaya pedagogika: uchebnik dlya industrialno-pedagogicheskix tekhnikumov i dlya studentov inzhenerno-pedagogicheskix spetsialnostey. – Ekaterinburg: Delovaya kniga, 1999. - 329 s.
2. Boyasis R. Kompetentniy menedjer. Model effektivnoy raboti: per. s angl. / R. Boyasis. – M.: GIPPO, 2008. - 352 s.
3. Gez N. I., Lyaxovskiy M.V., Mirol'yubov A.A. i dr. Metodika obucheniya inostrannim yazikam v sredney shkole. Uchebnik. - M.: Vissh. shkola, 1982. - 373 s.
4. Dobrovich A. B. Vospitatelyu o psixologii i psixogigiyene obsheniya.M.: Prosveshenie, 1987.-208s
5. Zimnyaya I. A. Ta'limda kompetentlik yondashuvning natijaga yonaltirilgan asosi sifatida asosiy kompetentliklar: mualliflik versiyasi [Elektron resurs] <http://www.edu.ru>
6. Karaulov Yu. N. Russkiy yazik i yazikovaya lichnost. M.: Nauka, 1987. - 363 s.
7. Klyuev E. V. Rechevaya kommunikatsiya M.: Ripol Klassik, 2002. - 320 s.
8. Knodel L. V. Kompetensiya i kompetentnost v sfere obucheniya inostrannim yazikam: monografiya. – Kiev: FOP Kandiba T. P., 2019. – S. 66 -297 s.
9. Kochetkova T. V. Diss.... Yazikovaya lichnost nositelya elitarnoy rechevoy kulturi. — 1999, - 534 s.
10. Kyaerst M. Rassmotrenie kompetentnosti v psixologicheskoy konsepsii sovershenstvovaniya upravleniya proizvodstvennoy organizatsiey
11. Eldorjon Y. Shermatov (2023). Principles of teaching a foreign language to journalism students using LMS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(04), 7–12. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eijmrms/article/view/23042>

12. Shermatov Eldor Yovmiddinovich. Specific training of professional vocabulary of the English language for students of journalism. Theoretical & Applied Science 9 (2020): 467-470.
13. Saidqodirova D. S. (2024). Terminologik tizimining kognitiv-nominativ mohiyati. B Models and Methods in Modern Science (T. 3, Выпуск 3, ss. 67–71). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10776227>
14. Xazratova Z. M. Kasbga yo'naltirilgan chet tili (nemis va ingliz tillarida) o'rgatishda terminlarni o'rganish usullari. Daf-Unterricht Im Digitalen Zeitalter, 121.
15. Madaminova U. R. Integrated and communicative approaches in teaching and learning english. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.2 (2021): 92-97.

SOHAVIY INGLIZ TILINI O'QITISHDA TIL VA NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Bumoxira SULAYMANOVA
O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ingliz tilini o'qitishda til va nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun elektron o'quv materiallari, xususan ijtimoiy mediadan keng foydalanishning metodik zarurati yana shu bilan belgilanadiki, ijtimoiy media yuqori kommunikativ qobiliyat va talabalarni o'quv faoliyatiga faol jalb qilishi bilan alohida ajralib turadi, bilim, ko'nikma va nutq qobiliyatining potensialini faollashtiradi.*

Kalit so'zlar: *ingliz tili, jurnalistika, sohaviy leksika, o'qitish jarayoni, ijtimoiy media.*

Mamlakatimiz jahon axborot maydoniga shiddat bilan integratsiyalashmoqda. Vatanimiz fuqarolari bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan to'plangan ma'lumot va axborotlarni cheksiz ravishda olish imkoniyatiga ega. Biz oladigan va foydalanadigan axborotning sifati bizning hayotiy tanlovimizga, ijtimoiy-siyosiy faoliyatimizga katta ta'sir ko'rsatadi. So'nggi besh yil ichida texnika va texnologiyalar taraqqiyoti OAV, axborot manbalari va axborot yetkazib beruvchilari (kutubxonalar, arxivlar, internet va b.) faoliyatining beqiyos kengayishiga olib kelib, fuqarolarga uning ulkan hajmidan foydalanish va almashinish imkonini yaratdi. Pirovard natijada, fuqarolar ushbu axborotning ishonchli ekanligini baholash, o'z fikrini erkin aytish borasidagi huquqlarini